O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 384-388.
15. Kurolovich S. L. SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC" HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – T. 3. – №. 06. – C. 12-20.
16. Abdushukurov B. XI—XIVasr turkiy yozma manbalarda qo ‘llanilgan zoonimlar //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – T. 1. – №. 1.
17. Синдоров Л. Ҳибат ул-ҳақойиқ достонидаги арабча ўзлашмаларнинг тарихий-этимологик таҳлили //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 610-613.
18. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi: Universitet va pedagogika institutlari filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.

OYBEKNING «NAVOIY» ROMANI TILIDA QO‘LLANILGAN FORS-TOJIKCHA SO‘ZLAR

f.f.f.d., dots. Sindorov Lutfulla Kurolovich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
lutfulla1803@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oybekning «Navoiy» romani tilining o‘zlashma leksik qatlamlari, xususan, fors-tojikcha so‘zlar jamlanib, tematik jihatdan tasniflab chiqilgan hamda zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan holda tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili leksikasi, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, arabcha so‘zlar, fors-tojikcha so‘zlar, tasnif, bilingvizm, so‘z yasash.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy aloqalar sodir bo‘ladi. Buning natijasida tillarning lug‘at tarkibi yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi so‘zlar bilan boyib boradi. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi bilan hamohang tarzda o‘zbek tili ham o‘zining tarixiy rivojlanishida ko‘plab boshqa xalqlar tillari bilan aloqada bo‘ldi. Shu bois, o‘zbek tili lug‘at tarkibining ma’lum qismini o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi [12.209].

Boshqa qardosh turkiy tillar singari o‘zbek adabiy tili uchun ham so‘z o‘zlashtirish xarakterli hisoblanadi. XI asrga oid manbalarda qo‘llanilgan o‘zlashmalarning kirib kelishida fors-tojik va arab tilidan o‘zbekchaga qilingan badiiy tarjimalarning roli sezilarlidir. Fors tili bu davrda ma’muriy, huquqiy, tijoriy, ilmiy, diniy tushunchalarni ifodalovchi sharq tillari so‘zlarining o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashishida vositachi vazifasini bajargan. Tabiiyki, chet so‘zlarning turli soha leksikasiga o‘zlashish darajasi ham har xil. Jumladan, harbiy terminologiya mo‘g‘ulcha so‘zlar hisobiga kengaygan bo‘lsa, ma’muriy, siyosiy, tijoriy-moliyaviy,

ilmiy, diniy leksika esa, asosan, arabcha, forsiy o‘zlashmalar orqali boyigan.

Tarixdan yaxshi ayonki, O‘rta Osiyo hududida azaldan turkiy aholi istiqomat qilgan. O‘rta Osiyo – ikki daryo oralig‘ida qadimdan forsiy tilda so‘zlashuvchi aholi turkiylar bilan birgalikda yashab kelgan. Ular Ahamoniylar hukmronligi davrida (mil.avv. VI-IV asrlar) katta ta’sirga ega bo‘lgan bo‘lsa, ularning keyingi yirik oqimi Movarounnahr hududlariga arablar bilan birga kirib keldi [16.25-26].

Professor E. Begmatovning yozishicha, turkiy urug‘ va qabila tillari, jumladan, o‘zbek xalqi tilining eroniy tillar bilan aloqasi uch davriy xususiyat bilan xarakterlanadi:

1. Turkiy urug‘, qabila tillarining qadimiy eroniy qabila va urug‘ tillari bilan aloqasi va qo‘shilishi (qadimiy davrlarda).

2. O‘zbek tilining forsiy til bilan (IX-X, XI-XV asrlar) aloqasi.

3. O‘zbek tilining mahalliy tojik shevalari va tojik xalq tili bilan aloqasi (qadimdan to hozirgacha) [8.105-106].

Darhaqiqat, bu xalqlarning yonma-yon yashashi, o‘zaro munosabatlari va yaqinlashuvi, bir-biriga ta’siri natijasida ikki tillilik yuzaga kelgan [9.168].

Somoniylar davrida (IX-X asrlar) klassik forsiy adabiy til keng tarqala boshladi. Forsiy adabiy tilda bu davrda (VII-VIII asrlarda) fan va adabiyot sohasida, shuningdek, yuridik sohada hukmronlik qilgan arab tilini siqib chiqara boshlaydi. Bunday kurash dastlab XI asrda fors-tojik tilining arab tilini she’riyatdan siqib chiqarishiga sabab bo‘ladi [15.110].

O‘rni kelganda e’tirof etish kerakki, XIV-XV asrlarda turkigo‘y adiblar fors-tojik tilini yaxshi bilganlar va har ikkala tilda ijod qilganlar. Demak, forsiy so‘zlarning o‘zbek tiliga o‘zlashishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynagan:

a) o‘zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir (yoki qo‘shni) hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy muhitda yashab kelayotganligi;

b) o‘zbek-tojik va tojik-o‘zbek ikki tilliligining (bilingvizmining) keng tarqalganligi;

v) tojik va fors tillarida ijod qilish an’analarining uzoq yillar davom etganligi;

g) Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida fors-tojik tilining alohida mavqega ega bo‘lganligi;

d) adabiyot, san’at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik [11.55].

Oybekning «Navoiy» romani tilidagi fors-tojikcha o‘zlashgan so‘zlarni quyidagi leksik-semantik mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. Odam va hayvon a’zolari nomi: *aft [7], andom (jussa), bel, chehra, dil, kaft, lab, mo‘ylab, mijja, panja, rujor, siyna, tana, zulf* kabi so‘zlar. Masalan, «U yo‘g‘on charpahil gavdali, dakkam-dukkam qizg‘ish mo‘ylabli» (9-bet).

2. Daraxt va o‘simliklar, ular tanasining qismlari nomi: *anor, barg, changal, daraxt, g‘uncha, giyoh, gul, magiz, nihol, sabzi, xas, zarang* kabi so‘zlar. Masalan, «Shoir bir vaqtlar zavqlanib kezgan saroyda gulzorlarni sog‘inchli nazar bilan tomosha qilib, bosh qasrga borarkan sarvzorlar orasidan Husayn Boyqaro chiqib keldi» (373-bet).

3. Mashg‘ulot va kasb-hunar, ular bilan aloqador tushunchalar nomi: *andoza, bastakor, charh, darvozabon, gaz, go‘lah;, hunar, juvoz, kisavur, kulol, mirob, oshpaz, payvand, sangtarosh, sozanda,tarozu, usta, zardo‘z, zargar* kabi so‘zlar.

Masalan, «Qovog‘i ochilmagan sarkor davraga bir ko‘z yugurtirib, oshpazga «Boshlang», deb qichqirdi» (203-bet).

4. Oziq-ovqat, ichimliklar nomi: *boda, burda, charbi, go‘sht, kunjut, lalmi, mastava, may, nabot, non, osh, palov, qand, sharbat, sharob, shira, xom, xurak, yog‘, zog‘ora* kabi so‘zlar. Masalan, «Xilini, ta’mini surishtirmay, duch kelgan sharobni ko‘taradigan Turonbekka ikki kosa may xech kor qilmadi» (28-bet).

5. Shaxs, inson tushunchasi bilan bog‘liq nomlar: *kanizak, kaniz, hamroh;gadoy, hamsuhbat, hamxona, jahon, jonona, juvon, kamina, kampir, mehmon, mezbon, sohib, xushmuomala, xushsuhbat* kabi so‘zlar. Masalan, «Mehmonni laziz ovqatlar bilangina emas, shirin latifalar bilan ham kutmoq kerak» (316-bet).

6. Kiyim-kechak, ular qismlari, matolar hamda tikuvchilik, kashtachilikka oid so‘zlar: *adras, astar, atlas, baxya, beqasam, charm, chit, chok, chopon, choyshab, dakana, doka, jig‘a (toj), joma, kafsh, kallapo‘sh, kamar, kavush, kimxob, kuloh, las, movut, nimcha, po‘stin, qissa, ro‘mol, sarupo, shoyi, tasma, yaktak zar, zarbof* kabi so‘zlar. *Masalan, «Dildor qorga to‘lgan kafshini tushirib, kiyib, Davlatbaxt yashaydigan xonaga yugurdi» (226-bet).*

7. Turar-joy, qurilish va binokorlikka oid so‘zlar: *ark, arra, ayvon, cho‘p, chortoq, dahliz, daricha, darvoza, dasta, devor, g‘isht, g‘ob, gaz, gumbaz, katak, ko‘shk, koshona, mehrob, narvon, panjara, paxsa, peshtoq, pona, poydevor, poygacha, poytesha, reja, saroy, ship, sinch, tarnov, taxta, tokcha, toqi, ustun, xobgoh, xoda, xona, xonaqoh, zambil, zina* kabi so‘zlar. Masalan, «Poytesha bolta, arralarning sadolari ajoyib bir ohang bilan havoda yangraydi» (201-bet).

8. Uy-ro‘zg‘or buyumlari, asbob-uskunalar nomi: *anjom, barkash, bo‘yra, charh, chelak, chirog‘, dastgoh, dasturxon, dekcha, g‘alvir, g‘ildirak, gilam, jihoz, jom, jomashov, juvoz, kajava, kapgir, ko‘rpa, ko‘za, kosa, kunda, lagan, mola, obdasta, parda, piyola, poyondoz, so‘zana, tandir, ustara, xalacho‘p, xalta, xum, xurmacha, zanjir* kabi so‘zlar. Masalan, «Dasturxonni yozib, nonni ushatdi, do‘stlarini o‘z odati bo‘yicha yemakka qistadi» (19-bet).

9. Qarindoshlik, yaqinlik munosabatiga doir so‘zlar: amaki, amakivachcha, begona birodar, do‘st, dugona, farzand, go‘dak, jigarband, jigargo‘sha, momo, nabira, padar, yor kabi so‘zlar. Masalan, «O‘z qo‘lini nabirasi qoniga bo‘yagan podshohdan nafratlandi» (454-bet).

Tilning so‘z boyligini diaxron aspektda o‘rganish til faktlarining taraqqiy etish usullarini aniqlash uchungina emas, ayni paytda, uni yaratgan xalq tarixini tadqiq qilish uchun ham alohida ahamiyatga ega. Demak, har bir tilning tarixi shu tilga mansub xalq o‘tmishi bilan bog‘liq. Xalq tarixida nimaiki yuz bersa, tilga ozmi-ko‘pmi o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu, eng avvalo, tilning lug‘at boyligida sodir bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, aytish mumkinki, «Navoiy» romani leksikasini mavzuiy guruhlar bo‘yicha tahlil qilish natijasida doston tilida turli mavzuiy guruhga tegishli so‘zlar ishlatilganligi, ularda xalq turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyoti o‘z aksini topganligi ayon bo‘ldi. Ayni paytda, mazkur mavzuiy guruhlarning shakllanishida boshqa tillardan, xususan fors-tojik tilidan kirgan leksemalar ham katta ahamiyat kasb etgan. Asarda hayotning deyarli barcha sohalariga oid narsa-predmet, voqea-hodisalarni ifodalovchi leksemalar uchraydi. Binobarin, so‘zlarni mavzuiy guruhlarga ajratish til lug‘at tarkibini tizimli

o‘rganishning qulay usullaridan hisoblanib, romanda qo‘llanilgan leksik birliklarning qaysi sohaga tegishli ekanligini, kelib chiqishini, o‘z qatlamga doir so‘zlarning o‘zlashmalar bilan o‘zaro munosabatini hamda ularning qo‘llanish doirasini aniqlashga, tilning tarixiy va zamonaviy holatini baholashga, qolaversa, xalq tarixini atroflicha yoritishga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdushukurov B. XI—XIVasr turkiy yozma manbalarda qo ‘llanilgan zoonimlar //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2019. – Т. 1. – №. 1.
2. Kurolovich S. L. SEMANTICS OF WORDS USED IN THE EPIC" HIBAT UL-HAQOYIQ" ACCORDING TO THE RELATIONSHIP OF FORM AND MEANING //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 06. – С. 12-20.
3. Kurolovich S. L., Olimovich K. T. «HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA HARBIY TUSHUNCHALARNI BILDIRUVCHI SEMANTIK MAYDON //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 233-236.
4. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. ANALYSIS OF THE CONCEPT, ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 384-388.
5. Lutfulla S., Abbos S., A’zimjon S. THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 12. – С. 378-383.
6. Lutfulla, Sindorov. "«HIBAT UL-HAQOYIQ» DOSTONI LUG ‘AT TARKIBIDAGI PARADIGMATIK MUNOSABATLAR." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2023): 475-477.
7. Oybek. Navoiy. Roman. / «Asr oshgan asarlar» turkumi // Tahrir ha’yati: Bobur Alimov va boshq. /. – T.: «Sharq», 2004, – 496 b.
8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Т.: Фан, 1985. –200 б.
9. Гулямов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. –Т.: Фан, 1983. –304 с.
10. Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Т.: Ёзувчи, 1991. –186 с.
11. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 2-қисм. –Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2004. –146 б.
12. Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси. –Т.: Фан, 2006. – 212 б.
13. Коркмазова Л. Освоение в русском языке тюркизмов с неясными основами. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Махачкала, 2004. –162 с.
14. Синдоров Л. Ҳибат ул-ҳақойиқ достонидаги арабча ўзлашмаларнинг тарихий-этимологик таҳлили //Современные инновационные исследования

актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 610-613.

15. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида форс-тожикча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон (тўплам) –Т.: Фан, 1968. –Б. 110-128.

16. Яхшиев А. Этногенез, ёзув, тил ва тарих // Жамият ва бошқарув. –Т.: 2006. №4. –Б. 23-26.

SENTENCE STRESS TYPES IN ENGLISH PHONETICS

Parmonova Nasiba Amriddin qizi
Jizzakh branch of National university of Uzbekistan
nasibaparmonova249@jbnuu.uz

Abstract. This article examines the various types of sentence stress in English phonetics, highlighting their functional roles and impact on intelligibility and communication. By analyzing different stress patterns, the study aims to provide insights into how stress contributes to the rhythmic structure of English and influences listener comprehension.

Key words: rhythmic and melodic aspects of spoken language, sentence stress, pitch, loudness, duration, lexical stress, emphatic stress, contrastive stress, new information stress

Understanding the role of stress in phonetics is crucial for deciphering the rhythmic and melodic aspects of spoken language. In English, stress can significantly alter the meaning of sentences and plays a vital role in ensuring effective communication. This article aims to explore the different types of sentence stress, their characteristics, and their linguistic functions, shedding light on their importance in both native and second-language contexts.

Sentence stress refers to the emphasis placed on certain words within a sentence, which are crucial for conveying meaning. According to Fry, the physical correlates of linguistic stress include variations in pitch, loudness, and duration [2]. Beckman and Edwards further explored these correlates, finding that stressed syllables tend to be pronounced with higher pitch and longer duration [1]. Recent studies have emphasized the role of stress in language acquisition and processing, noting that non-native speakers often struggle with the correct application of stress patterns [3].

This study analyzed recorded speech samples from 30 native English speakers and 30 non-native speakers fluent in English. The sentences used included a mix of declarative, interrogative, and imperative sentences to cover a broad range of stress applications. The speech analysis software Praat was used to measure pitch contours, duration, and intensity of stressed syllables.

Sentence stress includes the following key characteristics:

Content over function: Stress is typically placed on content words (nouns, main verbs, adjectives, and adverbs), which carry the bulk of the semantic load, rather than